

TABIAT BURCHAGI VA EKOLOGIK MUHITNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Ernyazova Manzura Amankeldi qizi,

*Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabga tayyorlov guruhi bolalarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiat burchagi va ekologik muhitni maqsadga muvofiq tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tabiat burchagi — bolaning jonli tabiat bilan bevosita muloqotini ta'minlovchi, kuzatish, parvarish va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantiruvchi muhit sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada tabiat burchagini loyihalashning psixologik-pedagogik asoslari, tarkibiy komponentlari, tashkil etish tamoyillari va ekologik qadriyatlarini shakllantirishdagi o'rni batafsil yoritiladi. Shuningdek, pedagogning tabiat burchagi vositasida bolalar bilan olib boradigan ta'limiy faoliyatining shakl va metodlari, hamda ushbu muhitning kognitiv, hissiy-axloqiy va xulq-atvor jihatlariga ta'siri tadqiq etiladi. Eksperimental kuzatuvlar va amaliy tajribalar asosida tayyorlov guruhi sharoitida ekologik muhitni samarali tashkil etishning metodologik tavsiyalari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tabiat burchagi, ekologik muhit, ekologik tarbiya, maktabga tayyorlov guruhi, pedagogik imkoniyatlar, ekologik qadriyatlar, kuzatish, parvarish ko'nikmalari, bolalar ekologik madaniyati.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the pedagogical possibilities of organizing a nature corner and an ecological environment in a purposeful way for the formation of ecological education in children of preparatory groups for school. The nature corner is considered as an environment that ensures direct interaction of the child with living nature and develops observation, care, and research skills. The article thoroughly describes the psychological and pedagogical foundations of designing a nature corner, its structural components, principles of organization, and its role in forming ecological values. In addition, the forms and methods of educational activities carried out by teachers through the nature corner, as well as its impact on cognitive, emotional-moral, and behavioral aspects, are investigated. Based on experimental observations and practical experience, methodological recommendations for the effective organization of an ecological environment in preparatory group conditions have been developed.

Keywords: nature corner, ecological environment, ecological education, preparatory group, pedagogical opportunities, ecological values, observation, care skills, children's ecological culture.

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ педагогических возможностей целенаправленной организации уголка природы и экологической среды в формировании экологического воспитания у детей подготовительных групп к школе. Уголок природы рассматривается как среда, обеспечивающая непосредственное взаимодействие ребёнка с живой природой и развивающая навыки наблюдения, ухода и исследовательской деятельности. В статье подробно освещаются психолого-педагогические основы проектирования уголка природы, его структурные компоненты, принципы организации и роль в формировании экологических ценностей. Также исследуются формы и методы образовательной деятельности педагога с использованием уголка природы, а также его влияние на когнитивное, эмоционально-нравственное и поведенческое развитие детей. На основе экспериментальных наблюдений и практического опыта разработаны методические рекомендации по эффективной организации экологической среды в условиях подготовительной группы.

Ключевые слова: уголок природы, экологическая среда, экологическое воспитание, подготовительная группа, педагогические возможности, экологические ценности, наблюдение, навыки ухода, экологическая культура детей.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabat muammosi o'ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ekologik inqirozning keskinlashuvi, atrof-muhitning ifлосланиши va tabiiy resurslarning kamayib borishi umuminsoniy muammo darajasiga ko'tarildi. Bunday sharoitda yosh avlodni ekologik madaniyat ruhida tarbiyalash davlat va jamiyat oldidagi eng muhim pedagogik vazifalardan biriga aylandi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi — bolaning ekologik dunyoqarashi, qadriyatlari va xulq-atvor mezonlari shakllanadigan dastlabki ijtimoiy makon hisoblanadi. Aynan shu davrda bolada tabiatga nisbatan mehr, qiziquvchanlik va g'amxo'rlik hissi barqaror asoslarda yuzaga kelishi mumkin. Shu boisdan ham maktabgacha ta'limda ekologik tarbiyaning tashkiliy shakllarini ilmiy jihatdan takomillashtirish pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tabiat burchagi — maktabgacha ta'lim muassasasining doimiy va o'zgaruvchan tirik tabiat ob'ektlarini o'z ichiga olgan, bolalarning jonli tabiat bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan makon sifatida qadimdan pedagogik amaliyotda o'rnatilgan. Biroq tabiat burchagini shunchaki bir nechta o'simlik va hayvonlar joylashtirilgan burchak sifatida emas, balki yaxlit pedagogik tizim sifatida talqin qilish zamonaviy ekologik ta'lim konsepsiyasining muhim talabi bo'lib qolmoqda.

Ushbu maqola maktabga tayyorlov guruhi sharoitida tabiat burchagi va ekologik muhitni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlarini sistemali o'rganishga qaratilgan bo'lib, uning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Ekologik tarbiyaning nazariy asoslarini ishlab chiqishda N.N. Kondrateva, S.N. Nikolayeva, L.M. Manevtsova kabi rus olimlari katta hissa qo'shgan. S.N. Nikolayeva tomonidan ishlab chiqilgan «Yoshligidan tabiat bilan» konsepsiyasi va dasturi maktabgacha ekologik ta'limda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu yondashuvda tabiat burchagi bolaning ekologik tajribasi shakllanadigan asosiy pedagogik vosita sifatida ko'riladi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbek pedagogika fanida maktabgacha ekologik tarbiya muammolari X.Y. Yo'ldosheva, M.X. Usmonova, D.N. Nishonova tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan. Mazkur olimlar milliy ta'lim tizimi sharoitida ekologik tarbiyaning mahalliy xususiyatlarini, xalq pedagogikasi an'alarini zamonaviy metodologiya bilan uyg'unlashtirishning yo'llarini ilmiy asoslab bergan.

J. Piajening bilish nazariyasi nuqtai nazaridan, 5-7 yoshli bolalar aniq operatsional fikrlash bosqichining ibtidoiy davrida bo'lib, ularda kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish qobiliyatlari rivojlanib boradi. Bu psixologik xususiyat tabiat burchagida olib boriladigan kuzatish va tajriba ishlarining samarali o'zlashtirilishiga zamin yaratadi. L.S. Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi esa pedagog rahbarligida bolaning tabiat bilan hamkorlikdagi faoliyatining tarbiyaviy salohiyatini asoslaydi. Ekologik tarbiyaga oid xorijiy tadqiqotlarda (D. Sobel, R. Louv, L. Chawla) bolalarning tabiat bilan bevosita muloqoti ularning psixologik sog'lig'iga, kognitiv rivojlanishiga va proekologik xulq-

atvorining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi empirik dalillar asosida isbotlangan. Ushbu natijalar tabiat burchagining nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki shaxs ekologik qadriyat tizimini shakllantirish vositasi sifatidagi ahamiyatini yanada mustahkamlaydi.

Tahlil va natijalar. Tabiat burchagi faqat organizmlar to'plami emas, balki didaktik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etilgan yaxlit pedagogik tizimdir. Uning to'g'ri tashkil etilishi bir nechta asosiy tamoyillarga asoslanishi lozim.

Birinchi tamoyil — xavfsizlik va yosh xususiyatlariga muvofiqdirligi. Tayyorlov guruhida qo'yiladigan o'simlik va hayvonlar bolalar uchun xavfsiz, parvarishi murakkab bo'lmagan, kuzatish uchun qulay turlar bo'lishi kerak. Bunda mahalliy tabiiy sharoitga xos o'simliklar (aloe, begoniya, geran', kaktus, finik palmasining maysasi va b.) va mayda hayvonlar (oltin baliqlar, toshbaqa, qushlar) afzal ko'riladi.

Ikkinchi tamoyil — dinamiklik va mavsumiylikdir. Tabiat burchagi faqat doimiy ob'ektlardan iborat bo'lmasligi, balki fasllar almashinuvini aks ettiruvchi mavsumiy elementlarni ham o'z ichiga olishi kerak. Kuz — sabzavot-meva ko'rgazmasi, qish — qo'sh oynali idishdagi qish o'simliklari, bahor — erta bahorda maysa undirish tajribalari va hokazo. Bu bolalarda tabiiy jarayonlarning siklik tabiatini idrok etish imkonini beradi.

Uchinchi tamoyil — bolaning faol ishtirokidir. Tabiat burchagi pedagogning nazorati ostida bolalar mustaqil parvarish olib boradigan makon bo'lishi kerak. Har bir bolaning «o'z o'simligiga» ega bo'lishi, navbatchilar tizimining joriy etilishi, parvarish jurnali yuritish kabi tashkiliy shakllar bolaning tabiatga shaxsiy mas'uliyatini rivojlantiradi.

To'rtinchi tamoyil — estetik muhit yaratishdir. Tabiat burchagining vizual jihozlanishi, o'simliklarning joylashtirilishi, yorug'lik va namlik sharoitlari nafaqat tirik organizmlar hayot faoliyatini ta'minlashi, balki bolada tabiat go'zalligini his etish, estetik idrokni rivojlantirish imkonini berishi lozim.

Maktabga tayyorlov guruhida ekologik muhit faqat tabiat burchagi bilan cheklanib qolmasligi lozim. Uning keng tushunilishida quyidagi tarkibiy qismlar ajratiladi:

1. Tabiat burchagi (jonli tabiat ob'ektlari — o'simliklar, hayvonlar, akvarium, terrarium). Bu yerda bolalar tizimli kuzatish, parvarish va elementar tajribalarni amalga oshiradi.

2. Ekologik laboratoriya (ko'chatlar, tuproq namunalari, tosh, qum va boshqa tabiiy materiallar bilan tajriba o'tkazish uchun stol va jihozlar). Bolalar bu yerda savol qo'yish va gipoteza tekshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

3. Ekologik kutubxona va ko'rgazma burchagi (tabiat haqidagi kitoblar, ensiklopediyalar, illyustratsiyalar, bolalar chizgan rasmlar, tabiiy materiallardan yasalgan ashyolar). Kognitiv qiziquvchanlikni rag'batlantiradi.

4. Tabiiy materiallar to'plami (donalar, barglar, toshlar, qobiqlar va b.). Bu bolalar uchun ijodiy va tadqiqotchilik faoliyatini uyushtirish imkonini beradi.

5. Gul bog'i yoki bog'cha (maktabgacha ta'lim muassasasi hovlisida joylashgan, bolalar faol qatnashadigan joy). Ochiq muhitda ekologik amaliyot shakllanadi.

Tabiat burchagida pedagogning bolalar bilan olib boradigan ta'limiy-tarbiyaviy faoliyati turli shakl va metodlarni o'z ichiga oladi. Ularni uch guruhga ajratish mumkin:

Kuzatish metodlari. Kuzatish — tabiat burchagidagi ta'lim-tarbiya jarayonining markaziy metodologik usuli hisoblanadi. Tayyorlov guruhida kuzatish quyidagi ko'rinishlarda tashkil etiladi: epizodik kuzatish (dars jarayonida qisqa muddatli), uzoq muddatli kuzatish (o'simlik o'sishini kuzatish kalendari orqali), taqqoslaydigan kuzatish (ikkita bir xil tur, turli sharoitda o'stirilgan). Har bir kuzatish bolaning o'z xulosasini shakllantirishi, kuzatish daftariga chizish yoki belgilash bilan yakunlanishi kerak.

Mehnat-amaliy metodlar. Tabiat burchagida olib boriladigan parvarish ishlari (sug'orish, changni artish, tuproqni yumshatish, ko'chib o'tish) bolada iqtisodiy, ekologik va axloqiy qadriyatlarni birgalikda shakllantiradi. Bu jarayonda pedagog bolaning mehnatini e'tirof etishi, uning samaradorligini izohlashi muhim pedagogik shartdir.

Tajriba-eksperimental metodlar. 5-7 yoshli bolalar elementar tajribalarni mustaqil o'tkaza olish qobiliyatiga ega. Misol uchun: tuproqsiz (suvda) o'stirish tajribasi; yorug'liksiz o'simlik rivoji; harorat va o'sish sur'ati o'rtasidagi bog'liqlik va hokazo. Bu metodlar bolada sabab-natija munosabatlarini anglab olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tabiat burchagining pedagogik imkoniyatlari faqat bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat emas. Uning asosiy maqsadi — bolada tabiatga nisbatan shaxsiy ekologik munosabatni, ya'ni ekologik qadriyatlarni shakllantirish hisoblanadi.

Kognitiv jihat: Bola tabiat ob'ektlari haqida bilimlar tizimini o'zlashtiradi — o'simliklar va hayvonlar hayotiy ehtiyojlari, ekosistemalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, insonning tabiatga ta'siri. Bu bilimlar amaliy kuzatish va tajribalar orqali o'zlashtirilganligi sababli chuqurroq va barqarorroq bo'ladi. Hissiy-axloqiy jihat: Jonli mavjudotni parvarish qilish jarayonida bolada hamdardlik, g'amxo'rlik, mas'uliyat kabi axloqiy fazilatlar rivojlanadi. O'simlik qurib qolganida bola xafa bo'ladi — bu kuchli hissiy tajriba ekologik qadriyatni shaxsiy darajada mustahkamlaydi.

Xulq-atvor jihati: Tabiat burchagida shakllangan ijobiy ekologik odatlar (sug'orish, tozalash, ehtiyotkorlik) keyinchalik bolaning tabiat bilan muloqot qilishning doimiy xulq-atvor modeliga aylanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tabiat burchagida faol qatnashgan bolalar kattaroq yoshda ham tabiiy muhitga nisbatan mas'uliyatli xulq-atvor namunasini namoyon etadi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, tabiat burchagi maktabga tayyorlov guruhida ekologik tarbiyaning asosiy pedagogik vositalaridan biri bo'lib, u to'g'ri tashkil etilganda bolalarning kognitiv, hissiy-axloqiy va xulq-atvor rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, tabiat burchagining pedagogik samaradorligi uning tarkibiy to'liqligi, mavsumiy dinamikasi, bolaning faol ishtirokini ta'minlash va pedagogning maqsadli rahbarligiga bog'liq.

Uchinchidan, ekologik muhitni tabiat burchagidan tashqari laboratoriya, ko'rgazma burchagi, tabiiy materiallar to'plami va ochiq bog'chadan iborat keng tizim sifatida tashkil etish ekologik tarbiyaning natijadorligini sezilarli darajada oshiradi.

To'rtinchidan, tabiat burchagida shakllanadigan ekologik qadriyatlar — shaxsiy mas'uliyat, tabiatga hamdardlik, g'amxo'rlik hissi — bolaning keyingi hayotida barqaror ekologik munosabatining poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Maqola natijalari maktabgacha ta'lim muassasalari pedagoglari va metodistlari uchun amaliy ahamiyat kasb etadi. Tabiat burchagini tashkil etishda milliy o'simlik va hayvon turlaridan foydalanish, mahalliy ekologik muammo va xalq tabiat bilimlari bilan uyg'unlashtirishning keyingi tadqiqotlarda o'rganilishi istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi PQ-145-son «Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori. — Toshkent, 2022.
2. Николаева С.Н. Методика экологического воспитания дошкольников. — М.: Академия, 2015. — 224 с.
3. Кондратьева Н.Н. «Мы»: Программа экологического образования детей. — СПб.: Детство-Пресс, 2003. — 240 с.
4. Yo'ldosheva X.Yo. Maktabgacha ta'limda ekologik tarbiya metodikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. — 186 b.
5. Sobel D. Beyond Ecophobia: Reclaiming the Heart in Nature Education. — Great Barrington: Orion Society, 1996. — 48 p.
6. Louv R. Last Child in the Woods: Saving Our Children from Nature-Deficit Disorder. — Chapel Hill: Algonquin Books, 2008. — 390 p.
7. Маневцова Л.М. Мир природы и ребёнок. — СПб.: Акцидент, 1998. — 319 с.
8. Usmonova M.X. Bolalarda ekologik tafakkurni rivojlantirish. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. — 142 b.
9. Chawla L. Growing Up in an Urbanizing World. — London: Earthscan/UNESCO, 2002. — 266 p.
10. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge: Harvard University Press, 1978. — 159 p.
11. Nishonova D.N. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga ongli munosabatni shakllantirish: Ped. fan. bo'y. falsafa doktori (PhD) diss. — Toshkent, 2021. — 138 b.
12. Piaget J. The Child's Conception of the World. — London: Routledge, 1929. — 397 p.
13. Olimov S.A. Ekologik qadriyatlar vositasida maktabga tayyorlov guruhi bolalarini tarbiyalash: uslubiy qo'llanma. — Toshkent: TIMI nashriyoti, 2023. — 96 b.